O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/2026.31.01.Ped.45.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

RO‘ZIBOYEV KUVONCHBEK ERGASH O‘G‘LI

FILOLOGIK YO‘NALISH TALABALARIGA INGLIZ TILINI O‘QITISHDA FRAZEOLOGIK KOMPETENSIYASINI KOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

13.00.02 - Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K: 378.091.3:811.111

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Ro‘ziboyev Kuvonchbek Ergash o‘g‘li
Filologik yo‘nalish talabalariga ingliz tilini o‘qitishda frazeologik kompetensiyasini kognitiv yondashuv asosida takomillashtirish..... 3

Рузибоев Кувончбек Эргаш угли
Совершенствование фразеологической компетенции студентов филологического направления при обучении английскому языку на основе когнитивного подхода .....……...35

Ro‘ziboyev Kuvonchbek Ergash o‘g‘li
Enhancing the phraseological competence of philology students in teaching English based on a cognitive approach..... 54

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works..... 70

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/2026.31.01.Ped.45.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

RO‘ZIBOYEV KUVONCHBEK ERGASH O‘G‘LI

FILOLOGIK YO‘NALISH TALABALARIGA INGLIZ TILINI O‘QITISHDA FRAZEOLOGIK KOMPETENSIYASINI KOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

13.00.02 - Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Ped9394 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.uzswlu.uz) hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Kushiyeva Nodira Xabibjonovna** Pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Abdullayeva Rozanna Mirzatullayevna** Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
	Samatova Barnoxon Ravshanxanovna Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD)professor v.b
Yetakchi tashkilot:	**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc. 03/2026.31.01.Ped.45.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “__” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik xalqa yo‘li ko‘chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91. Faks: (99871) 230-12-92. Email: uzswlu_info@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik xalqa yo‘li ko‘chasi, 21-A uy. Tel: (99871) 230-12-91. Faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “__” _____ kuni tarqatildi.

I.M. Tuxtasinov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi p.f.d. (DSc), professor

F.G. Zakirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi p.f.f.d. (PhD)

A.B. Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi p.f.d. (DSc), professor

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda chet tillarni, ayniqsa ingliz tilini o‘qitishda frazeologik birliklar asosida lingvistik va madaniy kompetensiyalarni takomillashtirish masalasi ta’lim tizimida muhim ilmiy-metodik yo‘nalishga aylanmoqda. Zamonaviy kommunikatsiyada grammatik va leksik bilimlar bilan bir qatorda tilning obrazli qatlamini tashkil etuvchi frazeologik birliklarni kontekstda to‘g‘ri qo‘llay olish talab qilinadi. Frazeologik birliklar tilda xalqning madaniy tafakkuri, tarixiy tajribasi va milliy qadriyatlarini mujassam etgani bois, ularni o‘qitish nafaqat til bilish, balki madaniyatni o‘zlashtirish jarayoni sifatida ham ahamiyatlidir. Kognitiv yondashuv nuqtai nazaridan frazeologik birlik tayyor lug‘aviy shakl sifatida emas, balki inson tafakkuri, idroki va konseptual tajribasi asosida shakllangan ma’no-obraz birligi sifatida talqin etiladi; bunda til o‘rganuvchi tayyor ma’lumotni qabul qiluvchi emas, balki ma’noni faol anglovchi va konseptual jihatdan qayta tiklovchi subyekt sifatida qaraladi. Aynan shu xususiyat kognitiv yondashuvni an’anaviy leksik-grammatik o‘qitish usullaridan farqlab, uni frazeologik kompetensiyani takomillashtirishning metodologik jihatdan yetakchi yo‘nalishi sifatida belgilaydi.

Jahondagi qator nufuzli universitetlar, jumladan Oxford University[1], Harvard University[2] hamda University College London[3] tajribasida xorijiy tillarni o‘qitish nafaqat til tizimini o‘zlashtirish, balki kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish, o‘quv strategiyalarini takomillashtirish, madaniyatlararo kompetensiyani kuchaytirish va autentik materiallar asosida kontekstual o‘qitishni tashkil etish bilan tavsiflanadi. Shu jihatdan zamonaviy oliy ta’lim amaliyotida xorijiy tillarni o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuv, kognitiv metodlar, interfaol texnologiyalar va autentik materiallardan foydalanish muhim o‘rin egallaydi. Mazkur yondashuvlar frazeologik birliklarni o‘rgatishda ham samarali bo‘lib, ularning ma’no, kontekst va madaniy mazmunini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Respublikamizda xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish, ta’lim tizimida xalqaro standartlarni joriy etish hamda mutaxassislarning til bilimlarini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan[4]. Oliy ta’lim tashkilotlarida talabalarni o‘z sohasi bo‘yicha amaliyotga tayyorlash jarayoni xorijiy til ta’limini kasbiy ehtiyojlar bilan uyg‘un holda tashkil etishni talab etadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni chuqur o‘zlashtirgan yuqori malakali kadrlar tayyorlash vazifasi xorijiy tillarni o‘qitishda, jumladan, frazeologik birliklarni

---

[1] University of Oxford. *Modern Languages General Course Guide 2025/26*. – Kirish manzili: https://www.lang.ox.ac.uk/modern-languages-general-course-guide; University of Oxford. *Applied Linguistics Research Group*. – Kirish manzili: https://www.education.ox.ac.uk/research/research-groups/language-cognition-development/applied-linguistics/

[2] Harvard University. *Area Courses: East Asian Languages and Civilisations*. – Kirish manzili: https://eas.fas.harvard.edu/area-courses

[3] University College London. *Centre for Languages & International Education*. – Kirish manzili: https://www.ucl.ac.uk/languages-international-education/

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. https://lex.uz/uz/docs/-5426736

o‘zlashtirishda kompetensiyaviy va kognitiv yondashuvning nazariy-metodik asoslarini ishlab chiqish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Ushbu tadqiqot O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ta’lim va tarbiya hamda ilm-fanni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2026-yil 10-apreldagi PF-58-sonli “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2026-yil 26-maydagi PF-98-sonli “Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlash va ularni attestatsiya qilish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2012-yil 10-dekabrdagi PQ-1875-son “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi VM-610-son “Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 19-maydagi VM-312-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekistonda chet tillarni o‘qitish metodikasi, talabalarning til kompetensiyalarini takomillashtirish va bu jarayonga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish masalalari T.Q.Sattorov, S.Saidaliyev, D.U.Xoshimova, G.T.Mahkamova, J.J.Jalolov, Sh.S.Ashurov, G.H.Bakiyeva, L.T.Axmedova, I.M.Tuxtasinov, N.X.Kushiyeva, F.M.Rashidova, M.H.Gulyamova, K.Sh.Muradkasimova, A.B.Raxmonov, U.R.Yo‘ldoshev kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan[5]**.** O‘zbekistonda chet tillarni, jumladan ingliz tilini

[5]Saidaliyev S. Chet til o‘qitish metodikasidan ocherklar. - Namangan, 2004. - 238 b.; Sattorov T.Q. Bo‘lajak chet tili o‘qituvchisining uslubiy omilkorligini shakllantirish texnologiyasi (ingliz tili materialida). - Toshkent: TDYuI, 2003. - 191 b.;Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi: chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. - Toshkent: O‘qituvchi, 2012. - 432 b.; Jalolov J.J., Makhkamova G.T., Ashurov Sh.S. English Language Teaching

frazeologik birliklar asosida o‘qitish va kommunikativ kompetensiyalarni takomillashtirish masalalari bo‘yicha Sh.K.Niyazmetova[6], D.M.Isroilova[7], N.F.Kasimova, M.U.Sharipova[8], S.A.Muhiddinova[9], D.F.Q.Gaybullayeva[10], N.A.Haydarova[11], F.M.Mamatova[12], M.I.Akhmedova[13], D.M.Rakhimov[14], D.F.Isakova[15], G.Y.Eshonkulova [16] kabi olimlarning tadqiqot ishlari o‘rganildi. Bu ishlarda frazeologik birliklarning lingvokulturologik, semantik va pragmatik tabiati, til bilan madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi hamda chet til o‘qitish metodikasini milliy ta’lim sharoitiga moslashtirish masalalari o‘rganilgan.

Methodology. - Tashkent, 2015. - 338 p.; Ахмедова Л.Т. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов. - Ташкент: Fan va technologiya, 2013. - 200 с.; Хошимова Д.У. Лингводидактические основы изучения лакун в контексте современного функционирования русского языка и межъязыковых взаимодействий: дис. ... д-ра пед. наук. - Ташкент, 2007. - 209 с.; Бакиева Г.Х. Узбекский язык для стран СНГ. - Москва: МГЛУ, 2012. - 120 с.; Rashidova F.M. Improvement of the conceptual and methodological foundations of the implementation of the CEFR in the continuous education system of Uzbekistan (in the example of the English language): abstract of Doctor of Pedagogical Sciences (DSc). - Tashkent, 2017. - 67 p.; Gulyamova M.X. Ingliz tilini o‘qitishda talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrativ yondashuv: avtoref. dis. ... PhD ped. fan. - Toshkent, 2019. - 45 b.; Kushiyeva N.X. Uzluksiz ta’lim tizimida ingliz tilini klasterli yondashuv asosida o‘qitish modeli: avtoref. dis. ... DSc ped. fan. - Toshkent, 2023. - 35 b.; Tuxtasinov I.M. Development of professional competences in translator training based on equivalence phenomenon: abstract of Doctor of Pedagogical Sciences (DSc). - Tashkent, 2018. - 66 p.Рахмонов А.Б. Формирование профессиональной компетенции будущих учителей русского языка в самообразовательной деятельности: Автореферат. дис. ... dok.ped.nauk. - Ташкент, 2022. U.R. Yo‘ldoshev. Hajviy matnlar tarjimasining lingvostilistik va lingvokul’turologik xususiyatlari (ingliz tiliga tarjima qilingan o‘zbek xalq latifalar misoli): f.f.f.d. diss. - Toshkent, 2017.

[6] Ниязметова Ш.К. Способы и методы обучения использованию фразеологических единиц в образовательном процессе // Современное образование. - 2020. - № 5(90). - 8 с.

[7] Исроилова Д.М. Методологические аспекты содержания обучения английскому языку в нефилологических вузах // Вестник науки и образования. - 2019. - № 19(73). - 4 с.

[8] Kasimova N.F., Sharipova M.U. Uzbek and English Philosophy and Phraseology About Happiness as a Value // Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. - 2022. - Vol. 7. - 3 p.

[9] Muhiddinova S.A. Etymology of Phraseological Units in English and Uzbek Languages // European Scholar Journal. - 2021. - Vol. 2, № 3. - 3 p.

[10] Gaybullayeva D.F. Phraseological Units as National-Cultural Specifics of the English and Uzbek Languages // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. - 2022. - Vol. 3, № 5. - 4 p.

[11] Haydarova N.A. Linguocultural Analysis of English and Uzbek Medical Phraseological Units Describing Physiological Processes // European Journal of Research Development and Sustainability. - 2020. - Vol. 1, № 4. - 3 p.

[12] Mamatova F.M. Sociolinguistic and Psycholinguistic Studies of “Marriage” (on the Examples of English and Uzbek Phraseological Units) // European Scholar Journal. - 2021. - Vol. 2, № 4. - 4 p.

[13] Akhmedova M.I. The History of Studying English Phraseology as a Science // European Journal of Research Development and Sustainability. - 2022. - Vol. 3, № 1. - 3 p.

[14] Rakhimov D.M. The Importance of Phraseological Units in Describing Human Character in English and Uzbek Fiction // Western European Studies. - 2024. - Vol. 2, № 6. - 5 p.

[15] Isakova D.F. Phraseological Units in English and Uzbek Media Discourse // Academic Research in Educational Sciences. - 2025. - Vol. 6, № 1. - 5 p.

[16]Eshonkulova G.Y. Filologik yo‘nalishdagi talabalarga ingliz tili antropotsentrik maqollarni o‘rgatishning lingvodidaktik asoslari: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2025. - 58 b

MDH davlatlari olimlaridan I.L.Bim[17], L.S.Vygotskiy[18], L.V.Zankov[19], E.G.Tareva[20], V.V.Vorobyov[21], Yu.N.Karaulov[22], I.I.Haleeva[23], A.A.Leontiev[24], N.D.Galskova[25], A.V.Kunin [26]kabi mutaxassislarning ishlarida lingvistik shaxs nazariyasi, ijtimoiy konstruktivizm, kashfiyot asosida o‘rganish g‘oyalari, talaba va matn o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, til o‘rganish va kognitiv yondashuvlar, kommunikativ metodika kabi ilmiy asoslar keng tahlil etilgan. Ushbu ishlar chet tilini shaxsga yo‘naltirilgan, mazmunga asoslangan va madaniyatni hisobga olgan holda o‘qitishning nazariy asosini boyitgan.

Xorijiy olimlardan H.D.Brown[27], S.D.Krashen[28], H.Gardner[29], B.Tomlinson[30], J.S.Bruner[31], J.S.Brown, A.Collins, P.Duguid[32], J.C.Richards[33], D.Nunan[34], R.L.Oxford[35], M.Lewis[36], T.S.Rodgers[37] kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlari til o‘qitish materiallarini ishlab chiqish, ko‘p qirrali intellekt nazariyasi, ikkinchi tilni o‘zlashtirish, kognitiv rivojlanish, mazmunli o‘rganish hamda kommunikativ kompetensiyani takomillashtirish nazariyalariga asoslangan. Ularning ishlari chet tilida muloqot qilish jarayonida frazeologik birliklarni o‘zlashtirish, ularni nutqiy vaziyat va madaniy kontekstda to‘g‘ri qo‘llash, shuningdek, ta’lim jarayonida samarali metod va vositalarni tanlash bo‘yicha mustahkam ilmiy-metodik asos yaratadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim tashkiloti ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Tadqiqot ishi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ingliz tilini o‘qitish metodikasi va ta’lim texnologiyalari kafedrasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining

---

[17] Бим И.Л. Методика обучения иностранным языкам как наука и проблемы школьного учебника. - М. - Русский язык, 1977. - 288 с.
[18] Выготский Л.С. Мышление и речь. - М. - Лабиринт, 1999. - 352 с.
[19] Занков Л.В. Обучение и развитие. - М. - Педагогика, 1975. - 440 с.
[20] Tareva E.G., Shepilova A.V., Tarev B.V. Intercultural Content of a Foreign Language Textbook: Concept, Texts, Practices // XLinguae. - 2017. - Vol. 10, № 3. - 10 p.
[21] Воробьёв В.В. Лингвокультурология: теория и методы. - М. - Изд-во РУДН, 1997. - 331 с.
[22] Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. - М. - Наука, 1987. - 261 с.
[23] Халеева И.И. Основы теории обучения пониманию иноязычной речи (подготовка переводчиков). - М. - Высшая школа, 1989. - 236 с.
[24] Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. - М. - Просвещение, 1969. - 214 с.
[25] Гальскова Н.Д. Современная методика обучения иностранным языкам. - М. - Глосса, 2000. - 165 с.
[26] Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Москва: Высшая школа, 1996. – 381 с.
[27] Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching: A Course in Second Language Acquisition. - 6th ed. - Harlow - Pearson Education, 2014. - 402 p.
[28] Krashen S.D. Principles and Practice in Second Language Acquisition. - Oxford - Pergamon Press, 1982. - 202 p.
[29] Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. - New York - Basic Books, 1983. - 440 p.
[30] Tomlinson B. Developing Materials for Language Teaching. - London - Continuum, 2003. - 534 p.
[31] Bruner J.S. The Process of Education. - Cambridge, MA - Harvard University Press, 1960. - 97 p.
[32] Brown J.S., Collins A., Duguid P. Situated Cognition and the Culture of Learning // Educational Researcher. - 1989. - Vol. 18, № 1. - 11 p.
[33] Richards J.C. The Language Teaching Matrix. - Cambridge - Cambridge University Press, 1990. - 186 p.
[34] Nunan D. Language Teaching Methodology: A Textbook for Teachers. - New York - Prentice Hall, 1991. - 264 p.
[35] Oxford R.L. Language Learning Strategies Around the World: Cross-Cultural Perspectives. - Honolulu - University of Hawai‘i Press, 1996. - 317 p.
[36] Lewis M. The Lexical Approach: The State of ELT and a Way Forward. - Hove - Language Teaching Publications, 1993. - 200 p.
[37] Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. - 3rd ed. - Cambridge: Cambridge University Press, 2014. - 410 p.

“Tillarni o‘qitishdagi ilg‘or texnologiyalar va ularning amaliy qo‘llanilishi” mavzusidagi ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi filologiya yo‘nalishi 1-kurs talabalariga ingliz tilini o‘qitishda frazeologik kompetensiyani kognitiv yondashuv asosida takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

frazeologik kompetensiyaning mohiyati va tarkibiy komponentlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kognitiv yondashuv asosida ilmiy-nazariy tahlil qilish;

semantik aniqlik, pragmatik moslik, kontekstual aniqlik va stilistik sezgirlik ko‘rsatkichlariga asoslangan, frazeologik kompetensiyani baholovchi diagnostik modelni ishlab chiqish;

kognitiv yondashuvning metakognitiv nazorat tamoyiliga tayangan holda, har bir bosqichi frazeologik kompetensiyaning muayyan komponentiga – birlikni tanish, uning qo‘llanish vaziyatini tahlil qilish va ko‘chma ma’nosini kontekstdan anglashga – yo‘naltirilgan uch bosqichli “Self-check – Context-check – Meaning-check” metakognitiv monitoring modelini ishlab chiqish;

ingliz va o‘zbek frazeologizmlarini “journey”, “animal”, “war”, “body”, “food” metafora kodlari asosida qiyosiy-konseptual tahlil qilish va frazeologik kompetensiyani takomillashtirishga qaratilgan lingvomadaniy-qiyosiy (kontrastiv) mashqlar uchun didaktik asos vazifasini o‘taydigan kognitiv-madaniy xaritani yaratish;

frazeologik birliklarni tahlil qilish, kontekstual aniqlikni baholash va talabalarning refleksiv o‘z-o‘zini monitoring qilish jarayonlarini raqamli muhitda avtomatlashtiruvchi, sun’iy intellektga asoslangan “AI-assisted reflective learning” innovatsion ta’lim platformasini yaratish.

Tadqiqotning obyekti sifatida filologiya yo‘nalishi 1-kurs talabalariga ingliz tilini o‘qitishda frazeologik kompetensiyani kognitiv yondashuv asosida takomillashtirish jarayoni belgilangan.

Tadqiqotning predmetini filologiya yo‘nalishi 1-kurs talabalariga ingliz tilini o‘qitishda kognitiv yondashuv asosida frazeologik kompetensiyani takomillashtirishning shakl, usul va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari sifatida nazariy tahlil (tahliliy-sintetik, qiyosiy tahlil), pedagogik kuzatuv, diagnostik (test, so‘rovnoma, suhbat), pedagogik tajriba-sinov, pedagogik monitoring, matematik-statistik tahlil va natijalarni umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

frazeologik kompetensiyani an’anaviy “to‘g‘ri/noto‘g‘ri” baholashdan farqli ravishda to‘rt ko‘rsatkich (semantik aniqlik, pragmatik moslik, kontekstual aniqlik, stilistik sezgirlik) birligida o‘lchaydigan va diagnostika natijalari asosida mashq turlarini tanlash imkonini beruvchi PCDI (Phraseological Competence Diagnostic Indicators – frazeologik kompetensiyani diagnostik baholash ko‘rsatkichlari) modeli ishlab chiqildi;

umumiy metakognitiv monitoringdan farqli ravishda har bir bosqichi frazeologik kompetensiyaning muayyan komponentiga yo‘naltirilgan – frazeologik

birlikni tanish (Self-check), uning qo‘llanish vaziyatini tahlil qilish (Context-check) va ko‘chma ma’nosini kontekstdan anglash (Meaning-check) – uch bosqichli “Self-check – Context-check – Meaning-check” (o‘z-o‘zini tekshirish – kontekstni tekshirish – ma’noni tekshirish) metakognitiv monitoring modeli ishlab chiqildi;

ingliz va o‘zbek frazeologizmlarini “journey”, “animal”, “war”, “body”, “food” metafora kodlari hamda universal, qisman mos va madaniy-xos moslik zonalari bo‘yicha tizimlashtiruvchi va bu zonalar lingvomadaniy-qiyosiy mashqlarni murakkablik darajasi bo‘yicha bosqichlashtirish mezoni bo‘lib xizmat qiladigan kognitiv-madaniy xarita yaratildi;

frazeologik kompetensiyani takomillashtirish jarayonida sun’iy intellekt imkoniyatlariga asoslangan “AI-assisted reflective learning” tizimi ishlab chiqilib, ushbu tizim asosida frazeologik birliklarni tahlil qilish, kontekstual aniqlikni baholash va refleksiv o‘z-o‘zini monitoring qilish jarayonlarini raqamli muhitda avtomatlashtiruvchi innovatsion “Idioms-academy.uz” ta’lim platformasi yaratildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

filologik yo‘nalish talabalariga ingliz tilidagi frazeologik kompetensiyani kognitiv yondashuv asosida takomillashtirishga qaratilgan olti turdagi mashqlar tizimi ishlab chiqildi va shu asosda frazeologik birliklarning ma’no, kontekst va madaniy mazmunini o‘zlashtirishga xizmat qiluvchi didaktik materiallar bazasi yaratildi;

PCDI diagnostik modelining to‘rt ko‘rsatkichi (semantik aniqlik, pragmatik moslik, kontekstual aniqlik, stilistik sezgirlik) bo‘yicha diagnostik topshiriqlar, baholash rubrikasi hamda testlar banki ishlab chiqildi; “Self-check – Context-check – Meaning-check” metakognitiv monitoring modeli asosida talabalarning o‘z-o‘zini nazorat qilishiga yo‘naltirilgan refleksiv-baholash topshiriqlari ishlab chiqildi;

ingliz va o‘zbek frazeologizmlarining kognitiv-madaniy xaritasi asosida filologik yo‘nalish talabalari uchun “Improving Speaking by English Idioms” o‘quv qo‘llanmasi tayyorlandi va O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining № 188/11-08-son buyrug‘i bilan nashrga tavsiya etildi;

ingliz tili idiomalarini sun’iy intellekt yordamida refleksiv o‘rganishga mo‘ljallangan “Idioms” platformasi (idioms-academy.uz) yaratildi, unda mazkur metakognitiv monitoring modeli raqamli muhitda amalga oshirildi; platforma O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan Dasturiy mahsulotlar davlat reyestrida ro‘yxatdan o‘tkazildi (guvohnoma № DGU 67957).

Ilmiy tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuv va usullarning tadqiqot maqsadi va vazifalariga muvofiqligi, nazariy ma’lumotlarning nufuzli manbalardan olingani, tajriba-sinov ishlarining uch oliy ta’lim tashkilotida 370 nafar talaba (tajriba guruhi – 187, nazorat guruhi – 183) ishtirokida o‘tkazilgani, natijalarning Pirsonning χ^2 mezoni yordamida matematik-statistik tahlil qilingani ($\chi^2 = 14{,}62 > \chi^2krit = 7{,}81$; $\alpha = 0{,}05$), xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani hamda vakolatli tashkilotlar ma’lumotnomalari bilan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati filologik yo‘nalish talabalariga ingliz tilidagi frazeologik

kompetensiyani kognitiv yondashuv asosida takomillashtirishning nazariy asoslarini aniqlab berganligi, frazeologik birliklarning semantik, pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlarini o‘zaro bog‘liqlikda yoritganligi, ularni o‘qitishda kognitiv mexanizmlar, refleksiv monitoring hamda madaniy tafakkur bilan aloqadorlikni ilmiy jihatdan asoslab berganligi bilan izohlanadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari frazeologik birliklarni o‘zlashtirish jarayonida uchraydigan qiyinchiliklarni aniqlash, ularni bartaraf etishga xizmat qiluvchi metodik yechimlarni ishlab chiqish, ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarning qiyosiy-kognitiv hamda lingvomadaniy tavsifini berish orqali chet tillarni o‘qitish nazariyasini boyitadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati filologik yo‘nalish talabalariga ingliz tilidagi frazeologik birliklarni kognitiv yondashuv asosida o‘qitish metodikasining ilmiy-amaliy asoslari ishlab chiqilganligi, mashqlar tizimi, didaktik materiallar bazasi, diagnostik topshiriqlar va testlar banki yaratilganligi hamda ulardan oliy ta’lim tashkilotlarida amaliy ingliz tili, og‘zaki nutq amaliyoti, frazeologiya va lingvomadaniyatga oid mashg‘ulotlarni tashkil etishda, o‘quv qo‘llanmalarini takomillashtirishda va metodik tavsiyalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Filologik yo‘nalish talabalariga ingliz tilini o‘qitishda frazeologik kompetensiyani kognitiv yondashuv asosida takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan nazariy va amaliy natijalar asosida:

frazeologik kompetensiyani an’anaviy “to‘g‘ri/noto‘g‘ri” baholashdan farqli ravishda semantik aniqlik, pragmatik moslik, kontekstual aniqlik va stilistik sezgirlik ko‘rsatkichlari birligida o‘lchaydigan PCDI diagnostik modeliga oid xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2022–2025-yillarga mo‘ljallangan “Erasmus+ International KA107 Credit mobility Key action 1 – Mobility for learners and staff – Higher education student and staff mobility” (Germaniya, Gumboldt universiteti) loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 24-sentabrdagi 01/4-4439-son ma’lumotnomasi). Natijada ingliz tilini o‘qitishda frazeologik kompetensiyani diagnostik baholash va takomillashtirishga qaratilgan nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

umumiy metakognitiv monitoringdan farqli ravishda frazeologik birlikni tanish, uning qo‘llanish vaziyatini tahlil qilish va ko‘chma ma’nosini kontekstdan anglashga yo‘naltirilgan uch bosqichli “Self-check – Context-check – Meaning-check” metakognitiv monitoring modeliga oid taklif va tavsiyalardan Qarshi davlat universitetida 2022–2024-yillarda AQSH Elchixonasi tomonidan moliyalashtirilgan “The English Access Microscholarship Program” xalqaro grant loyihasida foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2026-yil 24-oktabrdagi 04/12239-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha o‘quv dasturiga frazeologik materiallar va ularga asoslangan topshiriqlar tizimi integratsiya qilinib, loyiha mazmuni boyitilgan;

ingliz va o‘zbek frazeologizmlarini “journey”, “animal”, “war”, “body”, “food” metafora kodlari hamda universal, qisman mos va madaniy-xos moslik zonalari bo‘yicha tizimlashtiruvchi kognitiv-madaniy xaritaga oid xulosalar asosida “Improving Speaking by English Idioms” o‘quv qo‘llanmasi tayyorlangan

(O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2026-yil 1-iyundagi 188/11-08-son buyrug‘i, 188/11-08-20-son nashr ruxsatnomasi). Natijada frazeologizmlardagi milliy-madaniy mazmunni qiyosiy anglashga yo‘naltirilgan o‘quv materiallari yaratilib, talabalarning frazeologik va madaniyatlararo kompetensiyasini takomillashtirishga xizmat qilgan;

frazeologik kompetensiyani takomillashtirish jarayonida sun’iy intellekt imkoniyatlariga asoslangan “AI-assisted reflective learning” tizimi ishlab chiqilib, ushbu tizim asosida frazeologik birliklarni tahlil qilish, kontekstual aniqlikni baholash va refleksiv o‘z-o‘zini monitoring qilish jarayonlarini raqamli muhitda avtomatlashtiruvchi innovatsion “Idioms-academy.uz” ta’lim platformasi yaratildi (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining DGU 67957-son guvohnomasi; Dasturiy mahsulotlar davlat reyestrida 2026-yil 29-iyulda ro‘yxatga olingan). Natijada talabalarning frazeologik kompetensiyasini sun’iy intellekt yordamida individuallashtirilgan va refleksiv tarzda takomillashtirish hamda “Self-check – Context-check – Meaning-check” bosqichlarini raqamli muhitda avtomatlashtirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma’ruza qilinib, muhokamadan o‘tkazilgan. Anjumanlarda kognitiv yondashuv asosida talabalarning frazeologik kompetensiyasini takomillashtirishga qaratilgan metodik model va mashqlar tizimi ilmiy jamoatchilik muhokamasiga taqdim etilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, ulardan 4 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tavsiya etgan ilmiy jurnallarda, 1 tasi xorijiy indekslangan ilmiy jurnalda, 2 tasi xorijiy ilmiy jurnalda, 2 tasi respublika onlayn ilmiy jurnalida, 8 tasi xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalari materiallari to‘plamlarida e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa umumiy 131 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “Talabalarning frazeologik kompetensiyasini kognitiv yondashuv asosida takomillashtirish muammosini o‘rganishning nazariy asoslari” deb nomlanadi. Kognitiv yondashuvning maqsadi va vazifalari, talabalarda frazeologik kompetensiyaning mazmun-mohiyati hamda ingliz tili darslarida ushbu kompetensiyani takomillashtirishga oid samarali metodlar nazariy jihatdan

yoritilgan. Talabalarning frazeologik kompetensiyasini takomillashtirish masalalarining ilmiy-nazariy tahlili olib boriladi. Frazeologik kompetensiya - bu shaxsning til tizimidagi barqaror iboralar, idiomatik birliklar va frazeologizmlarni turli kommunikativ vaziyatlarda to‘g‘ri idrok etish, talqin qilish va ularni maqsadga muvofiq qo‘llay olish qobiliyatini ifodalaydi.

Mazkur kompetensiya grammatik, lingvistik hamda ijtimoiy-madaniy kompetensiyalar bilan uzviy aloqada bo‘lib, ularni integrallashgan holda takomillashtirish zarurati frazeologiyani o‘qitish samaradorligini belgilovchi muhim omildir.

Frazeologik kompetensiyani takomillashtirish grammatik, lingvistik va ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarning uyg‘un integratsiyasi orqali amalga oshiriladi. Uni takomillashtirishda kognitiv, semiotik, kommunikativ va ijtimoiy-madaniy yondashuvlar muhim rol o‘ynaydi. Bu yondashuvlar frazeologik birliklarni nafaqat til birliklari sifatida, balki madaniy tafakkur va kommunikativ vosita sifatida chuqur anglashga yordam beradi. Frazeologiyani o‘rgatishda kontekstual ta’lim, aniq ko‘rsatmaga asoslangan tushuntirish, interaktiv mashg‘ulotlar, vizual materiallar, takrorlash, kollokatsiya asosidagi mashqlar va xatolarni tahlil qilish kabi metodlar keng qo‘llaniladi. Bu metodlar birgalikda qo‘llanganda, talabalar frazeologik birliklarni mazmunli, madaniy asoslangan va nutqiy jihatdan to‘g‘ri kontekstda qo‘llay olish kompetensiyasini egallaydi.

Kognitiv yondashuv esa talabalar frazeologizmlarni chuqur anglab, ulardan muloqotda samarali foydalanishga yordam beradi. Shu bilan birga, frazeologik kompetensiyani takomillashtirishda madaniyatlararo kommunikatsiya, kontekstual o‘rgatish, interaktiv usullar, vizual va audio materiallar, muammoli topshiriqlar va takroriy mashqlar katta ahamiyatga ega. Bu jarayonda talabalar nafaqat til bilimlarini, balki madaniy tafakkur va kommunikativ strategiyalarni ham o‘zlashtiradilar. Kognitiv yondashuv esa bu jarayonning asosi bo‘lib, u bilimlarni tahlil qilish, qo‘llash, refleksiya qilish, ijodiy va tanqidiy fikrlash, shuningdek, kommunikativ vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Frazeologik kompetensiyani takomillashtirishda tilning madaniy, ijtimoiy va semantik jihatlarini chuqur anglash, kognitiv va psixolingvistik jarayonlarga asoslanish muhim hisoblanadi. Frazeologik birliklar ko‘p hollarda so‘zma-so‘z tarjima qilinmaydigan, murakkab ma’noga ega bo‘lib, ularni o‘zlashtirish uchun madaniy kontekst va tafakkur jarayonlarini hisobga olish zarur. Lingvistik yondashuv ularning grammatik va semantik tuzilishini o‘rganishga xizmat qilsa, psixolingvistik yondashuv eslab qolish va qo‘llashdagi kognitiv mexanizmlarni tahlil qiladi. Ingliz va o‘zbek frazeologizmlari eng ko‘p uchraydigan besh metafora kodi “journey”, “animal”, “war”, “body”, “food”doirasida qiyosiy-konseptual tahlildan o‘tkazildi; natijalar 1-jadvalda har bir frazeologizm juftligi konseptual metafora, obraz tanlovi va kognitiv-madaniy moslik darajasi bo‘yicha umumlashtirildi.

1-jadval

Ingliz va o‘zbek frazeologizmlarining besh metafora kodi bo‘yicha qiyosiy-konseptual tahlili[38]

Metafora kodi	Konseptual metafora	Ingliz frazeologizmi (ma’nosi)	O‘zbek muqobili	Kognitiv-madaniy moslik
journey (yo‘l/safar)	*hayot/muammo - safar*	reach a dead end chorasiz holatga tushmoq	boshi berk ko‘chaga kirib qolmoq	To‘liq ekvivalent
	muammoni keyinga surish - safar	cross the bridge (when you come to it) — muammoni vaqti kelganda hal qilmoq	ko‘prikka yetganda kechik ko‘rinadi / yetganda ko‘ramiz	Qisman ekvivalent
animal (hayvon)	*inson holati - hayvon*	like a fish in water — o‘zini erkin, tabiiy his qilmoq	suvdagi baliqdek	To‘liq ekvivalent
	samaradorlik - ov	kill two birds with one stone — bir harakat bilan ikki natijaga erishmoq	bir o‘q bilan ikki quyonni urmoq	Qisman ekvivalent
	Mas’uliyat - hayvon / tana	carry the weight on one's shoulders (tana — yelka)	yelkamga tuya (hayvon — tuya)	Kod almashinuvi
war (urush)	*qat’iyat/kurash-jang*	fight tooth and nail — jon-jahdi bilan kurashmoq	tish-tirnog‘i bilan kurashmoq	To‘liq ekvivalent
	chidam -jang	bite the bullet — nochor holatga sabr bilan chidamoq	tishini tishiga qo‘ymoq	Qisman ekvivalent
body (tana a’zosi)	*diqqat/nazorat - ko‘z*	keep an eye on — nazorat qilmoq, kuzatmoq	ko‘z-quloq bo‘lmoq (ko‘z + quloq)	Qisman ekvivalent
	yordam - qo‘l	lend a hand — yordam bermoq	yordam qo‘lini cho‘zmoq	To‘liq ekvivalent
food (taom)	*sir -taom*	spill the beans — sirni aytib qo‘ymoq	og‘zidan gullab qo‘ymoq (“loviya” → “gul”)	Qisman ekvivalent
	mehmondo‘stlik - taom	frazeologik muqobili yo‘q (faqat erkin birikma: be hospitable)	dasturxoni ochiq / tuz-nasiba	Madaniy lakuna

Tahlil moslikning uch darajasini aniqladi: to‘liq ekvivalentlik (bir xil metafora va obraz: *fight tooth and nail ↔ tish-tirnog‘i bilan kurashmoq*) tafakkurning universal, tana-tajribaga asoslangan qatlamini; qisman ekvivalentlik (umumiy metafora, farqli obraz: *spill the beans ↔ og‘zidan gullab qo‘ymoq*) esa madaniy “kiyim”ning farqini aks ettiradi. Eng chuqur milliy-madaniy xoslik madaniy lakuna va kod almashinuvida namoyon bo‘ladi (masalan, mehmondo‘stlik o‘zbek tilida taom kodi orqali – dasturxoni ochiq, tuz-nasiba – ifodalanadi).

Xaritani tuzishda metafora kodlari uch mezon bo‘yicha tanlandi: kognitiv metafora nazariyasida (G.Lakoff, M.Johnson, Z.Kövecses) universal manba-domen

[38] Muallif ishlanmasi

sifatida e’tirof etilganligi; ikki tildagi frazeologik fondda keng qo‘llanishi; ikki xalqning turmush tajribasi va qadriyatlar tizimi bilan bog‘liqligi. Frazeologizm juftliklari konseptual metafora va obrazning mosligiga ko‘ra uch zonaga ajratildi. Xaritaning yangiligi shundaki, u tavsifiy-qiyosiy tadqiqotlardan farqli o‘laroq, moslik zonalarini mashqlar murakkabligi va ketma-ketligini belgilovchi didaktik mezonga aylantiradi: universal zonadagi birliklar kognitiv jihatdan oson o‘zlashtiriladi, madaniy-xos zonadagi birliklar esa maxsus lingvomadaniy izohni talab qiladi.

Tadqiqot ishining keyingi bo‘limida kognitiv yondashuvning nazariy asoslari va uning frazeologik kompetensiyani takomillashtirishdagi lingvodidaktik imkoniyatlari tahlil qilindi. Kognitiv yondashuv til birliklarini yodlashga emas, balki ularni idrok etish, qayta ishlash va ma’no hosil qilish jarayonlariga tayanadi; talabaning bilish faoliyati (kognitiv kompetensiya) esa bu yondashuv tayanadigan psixologik-pedagogik zamin sifatida qaraladi.

Yondashuvning nazariy asoslari bir qator olimlar qarashlariga borib taqaladi. J.Piaget bilimni faol kognitiv konstruksiya sifatida[39], L.S.Vygotskiy uni ijtimoiy interaksiya va “yaqin taraqqiyot zonasi” [40]orqali, J.Bruner esa kashfiyotga asoslangan mustaqil tahlil va sintez orqali o‘zlashtirilishini asoslaydi[41]. B.Bloomning kognitiv taksonomiyasi bilish jarayonini bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil, sintez va baholash bosqichlariga ajratadi[42]. A.V.Khutorskoy va A.A.Verbitskiy bilimni analitik fikrlash va real hayotiy kontekstda qo‘llash bilan bog‘laydi[43], J.Dewey esa o‘qitishni tajribaga asoslangan faol jarayon sifatida talqin qiladi[44].

Kognitiv yondashuvning frazeologiyaga xos negizi konseptual metafora nazariyasiga (G.Lakoff, M.Johnson, Z.Kövecses) tayanadi: frazeologik birliklarning aksariyati muayyan konseptual metaforalar zamirida motivlashgani bois ular yodlash orqali emas, balki obrazli asosni anglash orqali o‘zlashtiriladi[45]. Shu tariqa kognitiv yondashuv frazeologik birliklarni tahlil qilish, taqqoslash, kontekstual anglash va madaniy talqin qilish orqali frazeologik kompetensiyani takomillashtirishning uslubiy zaminini belgilaydi. Kognitiv yondashuvning metodologik chegarasi uning e’tibor markazi bilan belgilanadi: u frazeologik ma’noning konseptual-metaforik motivlanishini va uning anglanishini izohlaydi. Kommunikativ va kontekstual yondashuvlar birlikning nutqda va vaziyatda qo‘llanishiga, lingvomadaniy yondashuv uning madaniy qiymatiga, konstruktiv va

---

[39] Пиаже Ж. Психология интеллекта. – СПб.: Питер, 2003. – С. 21.

[40] Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 1999. – С. 86.

[41] Bruner J. The Process of Education. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960. – P. 33.

[42] Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. Handbook I: Cognitive Domain. – New York: Longmans, Green, 1956. – P. 357.

[43] Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – № 2. – С. 58.

Вербицкий А.А. Активное обучение в высшей школе: контекстный подход. – М.: Высшая школа, 1991. – С. 71.

[44]Dewey J. Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education. – New York: Macmillan, 1916. – P. 434.

[45] Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – P. 3.

Kövecses Z. Metaphor: A Practical Introduction. – Oxford: Oxford University Press, 2010. – P. 4.

metakognitiv yondashuvlar esa bilimni faol qurish va o‘z bilish faoliyatini nazorat qilishga yo‘naltirilgani bois, kognitiv yondashuvning o‘rnini bosa olmaydi va aksincha. Shu sababli tadqiqotda ular kognitiv yondashuv bilan tizimli birlashtirildi (kognitiv-integrativ yondashuv): konstruktiv, kontekstual va metakognitiv tamoyillar uning ichki tamoyillari sifatida, kommunikativ va lingvomadaniy yondashuvlar esa qo‘shimcha o‘lchamlar sifatida qo‘llanildi. Integratsiya uch qoidaga tayanadi: yetakchilik (qo‘llash va madaniy qiyoslash kognitiv anglashdan keyin amalga oshiriladi), taqsimlash (har bir yondashuv mashqlar tizimining muayyan bosqichiga biriktirilgan: kognitiv-semantik, lingvomadaniy-qiyosiy, kontekstual-pragmatik, ijodiy-kommunikativ, refleksiv-baholash) va yagona baholash (barcha bosqichlarda PCDI ko‘rsatkichlari hamda “Self-check – Context-check – Meaning-check” monitoringi). Birinchi bobning uchinchi bo‘limida talabalarning frazeologik kompetensiyasini kognitiv yondashuv asosida takomillashtirishning nazariy asoslari, yuzaga keladigan qiyinchiliklar hamda ularni bartaraf etishning samarali pedagogik imkoniyatlari tahlil qilindi.

Bizning ta’rifimizcha, frazeologik kompetensiya – bu insonning frazeologik birliklarni yaxlit bir butun til birligi sifatida tanish (leksik komponent), ularning majoziy-konseptual ma’nosini kognitiv jarayonlar orqali kontekstda anglash (semantik komponent) va kommunikativ vaziyat, uslubiy hamda lingvomadaniy kontekstga mos ravishda qo‘llash (pragmatik komponent) qobiliyatlarini o‘zida birlashtirgan, bilim, ko‘nikma, malaka va refleksiyaga tayanuvchi integrativ sifatidir. Ushbu kompetensiya kognitiv yondashuv asosida bosqichma-bosqich (diagnostik-motivatsion, kognitiv-semantik, lingvomadaniy-qiyosiy, kontekstual-pragmatik, ijodiy-kommunikativ, refleksiv-baholash) shakllantiriladi va talabaning “Self-check – Context-check – Meaning-check” modeli orqali mustaqil rivojlanib borishiga asos bo‘ladi. Taklif etilgan mualliflik ta’rifi CEFR (Companion Volume, 2020) kompetensiyalaridan farqli o‘laroq, frazeologik kompetensiyani yagona, uch komponentli integratsiyalashgan konstrukt sifatida tizimlashtiradi va uni kognitiv-madaniy o‘lcham bilan to‘ldiradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, frazeologik kompetensiyani takomillashtirish jarayonida asosiy qiyinchiliklar quyidagilar bilan bog‘liq: frazeologik birliklarning semantik murakkabligi, konnotativ ma’nolarni anglashdagi qiyinchiliklar, madaniy kontekst yetishmasligi va ularni real nutqda qo‘llash malakasining sustligi. Ushbu muammolarni bartaraf etishda kognitiv yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim samarali hisoblanadi. Kognitiv yondashuvning asosiy prinsiplari sifatida talabaning faol ishtiroki, bilimni kontekstda o‘zlashtirish, bosqichma-bosqich rivojlanish hamda refleksiya va metakognitiv nazorat muhim o‘rin tutadi. R. Gagné va M.D. Merrill ta’limni tizimli va kontekstual tashkil etish orqali talabalarning kognitiv faoliyatini rivojlantirish mumkinligini ta’kidlaydi. J.H.Flavell metakognitsiya nazariyasida talabalarning o‘z fikrlash jarayonini nazorat qilishi muhimligini ko‘rsatadi[46].

[46] Gagné R.M. The Conditions of Learning. – New York: Holt, Rinehart and Winston, 1965. – P. 143; Merrill M.D. First Principles of Instruction. – San Francisco: Pfeiffer, 2002. – P. 56; Flavell J.H. Metacognition and Cognitive

Tadqiqotda frazeologik kompetensiyani takomillashtirishning samarali usullari sifatida loyiha asosida o‘qitish, muammoli topshiriqlar, rolli o‘yinlar, simulyatsiyalar, vizual organayzerlar va interaktiv metodlardan foydalanish tavsiya etildi. Ushbu metodlar talabalarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv va kommunikativ faoliyatni takomillashtirishga xizmat qiladi. M.M. Bakhtinning dialogik yondashuvi esa frazeologik birliklarning nutq jarayonida kontekstga bog‘liq qo‘llanilishini asoslaydi[47]. Kognitiv yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim frazeologik kompetensiyani samarali takomillashtirish imkonini beradi. Ushbu yondashuv orqali talabalar frazeologik birliklarni nafaqat tushunadi, balki ularni real kommunikativ vaziyatlarda to‘g‘ri va ijodiy qo‘llash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “Talabalarning frazeologik kompetensiyasini takomillashtirishning zamonaviy metodik tahlili” deb nomlanadi. Ushbu bobda frazeologik kompetensiyani takomillashtirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar, shu jumladan kognitiv, kommunikativ va madaniyatlararo kompetensiyalar integratsiyasi asosidagi o‘qitish metodlari, ularning amaliy qo‘llanishi, samaradorligi va innovatsion texnologiyalar bilan uyg‘unligi tahlil qilinadi. Bobda, shuningdek, frazeologik birliklarni o‘rgatishda qo‘llanilayotgan didaktik uslublar, kontekstual yondashuvlar, interfaol va ijodiy mashq turlarining talabalarning nutq faoliyati va madaniy anglash qobiliyatiga ta’siri ilmiy asosda yoritilgan.

Davlat ta’lim standartlari, malaka talablari, o‘quv dasturlari va ingliz tili darsliklari frazeologik kompetensiyani takomillashtirish nuqtai nazardan metodik tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, amaldagi standartlarda frazeologik birliklarning leksik, semantik va pragmatik xususiyatlari yetarlicha yoritilmagan. Tahlil uchun aynan Cambridge University Press nashriyotining “Unlock” turkumidagi (Level 3, 4, 5) darsliklari tanlab olindi, chunki bu qo‘llanmalar tajriba maydonlari sifatida belgilangan oliy ta’lim tashkilotlarida “Og‘zaki nutq amaliyoti” fani doirasida amalda foydalanilayotgan asosiy o‘quv manba hisoblanadi hamda tinglab tushunish va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini tanqidiy fikrlash bilan uyg‘unlashtirgan holda takomillashtirishga yo‘naltirilgani bilan ajralib turadi.

Biroq, ko‘plab o‘quv qo‘llanmalarda frazeologik birliklar mustaqil mavzu sifatida emas, balki umumiy lug‘at yoki grammatika doirasida cheklangan holda berilib, madaniy va kontekstual izohlar yetarli emas, kognitiv yondashuv esa kam qo‘llaniladi.(2-jadvalga qarang)

Monitoring: A New Area of Cognitive-Developmental Inquiry // American Psychologist. – 1979. – Vol. 34, № 10. – P. 906.

[47] Bakhtin M.M. The Problem of Speech Genres // Speech Genres and Other Late Essays / Ed. by C. Emerson, M. Holquist. – Austin: University of Texas Press, 1986. – P. 60–102.

2-jadval

“Unlock” darsligida frazeologik kompetensiya komponentlarining aks etish darajasi[48]

Frazeologik kompetensiya komponenti	“Unlock” o‘quv materiallarida aks etish darajasi	Mashq namunalari va tahlil
Leksik komponent	Qisman aks etgan frazeologik birliklar matn va dialoglar tarkibida passiv holda uchraydi, lekin ularni yaxlit leksik birlik sifatida tanib olish va yodlashga yo‘naltirilgan maxsus topshiriqlar cheklangan	Masalan, “Unlock Level 4” tinglab tushunish matnlarida “keep an eye on”, “get the hang of”, “pull someone's leg” kabi iboralar kontekst ichida uchraydi. Talabadan: a) iborani matn ichidan toping; b) uni erkin so‘z birikmasidan farqlang; c) iboraning barqaror shaklini yod oling degan tizimli topshiriq berilmaydi. Bu esa leksik komponentning to‘liq shakllanishiga to‘sqinlik qiladi.
Semantik komponent	Qisman aks etgan critical thinking topshiriqlari orqali ma’no tahlili amalga oshiriladi, biroq frazeologizmlarning metaforik asosi va ko‘chma ma’no hosil bo‘lish mexanizmi tizimli ochib berilmaydi	Masalan, “Unlock Level 5”da “face the music” iborasi muhokamalarda uchraydi. Biroq talabaga: a) iboraning literal va ko‘chma ma’nosini farqlang; b) nima uchun aynan “music” obrazi ishlatilgan, deb tushuntiring degan kognitiv-semantik tahlil topshiriqlari berilmaydi. Natijada talaba iboraning ma’nosini kontekstdan taxmin qilishi mumkin, lekin uning semantik mexanizmini anglamaydi.
Pragmatik komponent	Cheklangan darajada aks etgan kommunikativ vaziyatlar va speaking topshiriqlari mavjud, ammo frazeologik birliklarning uslubiy registri, rasmiy/norasmiy farqlari va qo‘llanish chegaralari alohida o‘rgatilmaydi	Masalan, “Unlock Level 3”da “break the ice” iborasi speaking topshirig‘iga kiritilgan. Lekin talabaga: a) bu ibora rasmiy yig‘ilishdami yoki norasmiy suhbatdami qo‘llanadi; b) akademik nutqda uni qanday almashtirish mumkin degan uslubiy-pragmatik topshiriqlar berilmaydi. Bu esa pragmatik kompetensiyaning yuzaki shakllanishiga olib keladi.

Tadqiqot davomida Cambridge University Press nashriyotida chop etilgan “Unlock” darsliklari (Level 3, 4, 5) tahlili shuni ko‘rsatdiki: leksik komponent

[48] Muallif ishlanmasi

frazeologik birliklarni yaxlit birlik sifatida tizimli tanib olish maxsus topshiriqlar orqali shakllantirilmaydi; semantik komponent metaforik asosni kognitiv anglash yetarli chuqurlikda yoritilmaydi; pragmatik komponent uslubiy moslik va vaziyatga qarab qo‘llash deyarli mustaqil didaktik maqsad sifatida belgilanmagan. Shu bois frazeologik kompetensiyaning uch komponentini leksik, semantik va pragmatik izchil va maqsadli takomillashtiruvchi metodik yechimlar taklif etildi. Frazeologik birliklarni real vaziyatlarda tanib olish, ularning majoziy ma’nosini kognitiv tahlil orqali anglash va turli kommunikativ vaziyatlarda uslubiy jihatdan to‘g‘ri qo‘llashni o‘rgatish, darsliklarni yangi topshiriqlar bilan boyitish tavsiya qilindi. Ilmiy asoslangan metodik yondashuvlar orqali talabalarning frazeologik kompetensiya komponentlarini uyg‘unlashtirish zarurati asoslab beriladi.

Aniqlangan kamchiliklar shuni ko‘rsatadiki, amaldagi o‘quv materiallarida frazeologik kompetensiyaning leksik, semantik va pragmatik komponentlarini maqsadli va izchil takomillashtirishga qaratilgan yaxlit metodik tizim mavjud emas.

Chet tilini o‘qitishda frazeologik birliklarning semantik, pragmatik va madaniy xususiyatlarini inobatga olgan holda, frazeologik kompetensiyani kognitiv yondashuv asosida takomillashtirishga yo‘naltirilgan metodik mexanizm ishlab chiqildi. Ushbu mexanizm besh bosqichdan iborat bo‘lib (semantik anglash, kognitiv tahlil, mental modellashtirish, interfaol amaliyot, refleksiv baholash), har bir bosqich talabalarning kognitiv faoliyatini faollashtirish, frazeologik iboralarni chuqur tushunish va amaliy nutqda to‘g‘ri qo‘llashga tayyorlashga xizmat qiladi. Mazkur mexanizmning asosiy maqsadi bakalavr talabalarida ingliz tilidagi frazeologik birliklarni tanib olish, ularning semantik va obrazli xususiyatlarini anglash, lingvomadaniy mazmunini sharhlash, kontekstual-pragmatik vazifalarini tushunish hamda og‘zaki va yozma nutqda vaziyatga mos ravishda qo‘llash ko‘nikmalarini kognitiv yondashuv asosida bosqichma-bosqich takomillashtirishdan iborat. Mazkur jarayon faqat frazeologik birliklarni eslab qolish bilan cheklanmay, balki ularni mazmunan anglash,kontekstda qo‘llash va madaniy jihatdan talqin qilishni ham o‘z ichiga oladi.



1-rasm. Talabalarning frazeologik kompetensiyani takomillashtirish bosqichlari [49]

1-rasmda frazeologik kompetensiyani kognitiv yondashuv asosida takomillashtirishning besh bosqichi va har bir bosqichda bajariladigan ishlar ko‘rsatilgan. Bosqichlar bir-biridan talaba bajaradigan yetakchi kognitiv amal bilan farqlanadi. Semantik anglash bosqichida frazeologik birlik tashqi idrok etilib, yaxlit birlik sifatida tanib olinadi, uning ko‘chma ma’nosi so‘zma-so‘z ma’nosidan semantik jihatdan farqlanadi va keyingi tahlil uchun dastlabki kognitiv tayyorgarlik hosil qilinadi. Kognitiv tahlil bosqichida birlik ma’nosi chuqur tahlil qilinib, uning konseptual-metaforik asosi va kognitiv-madaniy kodlari aniqlanadi. Mental modellashtirish bosqichida konseptual integratsiya orqali xotirada barqaror vizual-emotsional obraz (model) yaratiladi, ya’ni birlik ichkilashtiriladi. Interfaol amaliyot bosqichida nutqiy faollashtirish orqali iboralar avtomatlashgan va spontan nutqqa olib kiriladi. Refleksiv baholash bosqichida esa talaba metakognitiv nazorat va o‘z-o‘zini tahlil qilish orqali o‘z nutqiga uslubiy va stilistik tuzatishlar kiritadi.

[49] Muallif ishlanmasi



2-rasm. Talabalarda frazeologik kompetensiyani kognitiv yondashuv asosida takomillashtirish mexanizmi[50]

2-rasmda keltirilgan model talabalarda frazeologik kompetensiyani kognitiv yondashuv asosida takomillashtirish jarayonining izchil va tizimli tuzilishini aks ettiradi. Unda frazeologik birliklarni o‘zlashtirish kirish komponentlari orqali boshlanib, metakognitiv monitoring modeli (Self-check, Context-check, Meaning-

[50] Muallif ishlanmasi

check) asosida chuqurlashtirilishi ko‘rsatilgan. Mazkur mexanizmni amalga oshirish bosqichlari 3-jadvalda umumlashtirildi. Jadvalda frazeologik kompetensiyani kognitiv yondashuv asosida takomillashtirishga mo‘ljallangan beshta didaktik bosqich izchil tarzda keltirilgan bo‘lib, har bir bosqich uchun yetakchi kognitiv jarayonlar hamda metodik vositalar va topshiriqlar turi belgilab berilgan. Masalan, semantik anglash bosqichida kontekstual matnlar, vizual slaydlar va semantik xaritalardan foydalanilsa, refleksiv baholash bosqichida yozma esse, og‘zaki nutq prezentatsiyasi va o‘z-o‘zini baholash reytingidan foydalaniladi (3-jadvalga qarang).

3-jadval

Frazeologik kompetensiyani takomillashtirish mexanizmini amalga oshirish bosqichlari [51]

Didaktik bosqich	Kognitivjarayonlar	Metodik vositalar vatopshiriqlar turi
Semantik anglash	Tashqi idrok etish, semantik farqlash va dastlabki kognitiv tayyorgarlik.	Kontekstual matnlar, vizual slaydlar, semantik xaritalar, grafik organayzerlar.
Kognitiv tahlil	Konnotativ ma’noni chuqur tahlil qilish, kognitiv-madaniy kodlarni aniqlash.	Solishtirma va qiyosiy metod, semantik tarmoqlash, konnotativ tahlil, etimologik qidiruv.
Mental modellashtirish	Konseptual integratsiya,xotirada barqaror vizual-emotsional obraz (model) yaratish.	Drama elementlari, rolli o‘yinlar, keys-stadi (hayotiy vaziyatlar), keys uslubi.
Interfaol amaliyot	Nutqiy faollashtirish, iboralarni avtomatlashgan va spontan nutqqa implementatsiya qilish.	Dialogik va monologik nutq, “Frazeologik domino”, “Kontekstli to‘ldirish”, debat va guruhli bahslar.
Refleksiv baholash	Metakognitiv nazorat, o‘z-o‘zini tahlil qilish, uslubiy va stilistiktuzatish.	Yozma esse, og‘zaki nutq prezentatsiyasi, o‘z-o‘zini baholash reytingi, o‘qituvchi va guruh monitoringi.

Tadqiqotlarimiz davomida frazeologik kompetensiyani takomillashtirishga xizmat qiluvchi mashqlar tizimi ishlab chiqildi. Mazkur mashqlar tizimi kognitiv yondashuv tamoyillari asosida loyihalashtirilib, talabalarning frazeologik birliklarni anglash, eslab qolish, tahlil qilish va nutqiy faoliyatda qo‘llash ko‘nikmalarini izchil takomillashtirishga qaratildi. Tadqiqot doirasida diagnostik-motivatsion, kognitiv-semantik, lingvomadaniy-qiyosiy, kontekstual-pragmatik, ijodiy-kommunikativ hamda refleksiv-baholash mashqlari ishlab chiqildi. Bunda mashqlar tizimi talabalarning boshlang‘ich frazeologik bilim darajasidagi farqlarni hisobga olgan holda diagnostik-motivatsion bosqichdan boshlanadi, refleksiv-baholash bosqichida esa talaba o‘z xatolarini mustaqil aniqlab, mashqlar tizimini individual o‘quv ehtiyojlariga moslashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.(4-jadvalga qarang)

[51] Muallif ishlanmasi

4-jadval

Frazeologik kompetensiyani takomillashtirishga qaratilgan mashqlar tizimi[52]

Mashq turi	Maqsad	Mashq shakli	Takomillashtiriladigan komponent	Namuna topshiriq
Diagnostik-motivatsion	Talabalarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash va motivatsiyasini oshirish	Frazeologizmlarni tanish, farqlash	Leksik	“Read the text and underline the idioms. Match them with their meanings: a) to feel uncomfortable in a new situation; b) to start communication in a friendly way. (Text: I felt like a fish out of water… my colleague helped me break the ice.)”
Kognitiv-semantik	Frazeologik birliklarning ma’nosi va obrazini anglash	Ma’no tahlili, metaforik asosni aniqlash	Semantik	“Match the idioms with their meanings: The backbone of a) the main supporting element; Bear fruit b) to produce positive results. Give an Uzbek equivalent for each.”
Lingvomadaniy-qiyosiy	Frazeologik birliklarning madaniy asoslarini tushunish	Qiyosiy va lingvomadaniy mashqlar	Semantik (lingvomadaniy jihat)	“Match the English idioms with their Uzbek equivalents: Every cloud has a silver lining, Har bir ishda hikmat bor; Break the ice, Muzni eritmoq. Explain cultural similarities and differences.”
Kontekstual-pragmatik	Frazeologizmlarni kommunikativ vaziyatlarda qo‘llash	Dialog, vaziyatli topshiriqlar	Pragmatik	“Work in pairs. One of you has a problem, and the other gives advice using idioms. Useful idioms: ‘Don’t cry over spilt milk’; ‘Every cloud has a silver lining’. Create and perform a dialogue.”
Ijodiy-kommunikativ	Mustaqil nutq yaratish	Esse, monolog, rol o‘yinlari	Pragmatik	“Write a short essay (10–12 sentences) about a challenging experience. Use at least 3 idioms. Underline them.”
Refleksiv-baholash	O‘zlashtirish darajasini nazorat qilish	Self-check, Context-check, Meaning-check	Uch komponent (nazorat)	“After weeks of hard work, their efforts finally bore fruit. Self-check: Do you know this idiom? Context-check: What is happening in the situation? Meaning-check: What does the idiom mean here?

4-jadvaldagi mazkur mashqlar tizimi frazeologik kompetensiyaning leksik, semantik va pragmatik komponentlarini izchil va tizimli takomillashtirishga xizmat qiladi. Leksik komponent mashqlar tizimining diagnostik-motivatsion bosqichida, semantik komponent kognitiv-semantik bosqichida, pragmatik komponent esa kontekstual-pragmatik va ijodiy-kommunikativ bosqichlarida maqsadli

[52] Muallif ishlanmasi

takomillashtiriladi.Bundan tashqari, lingvomadaniy-qiyosiy bosqichdagi mashqlar semantik komponentning madaniy-kontseptual qatlamini chuqurlashtirishga xizmat qiladi, chunki ular frazeologik birliklarning milliy-madaniy asoslarini qiyosiy tahlil qilishni talab etadi.Refleksiv-baholash mashqlari esa uch komponentning ham o‘zlashtirilish darajasini nazorat qilishga qaratilgan. Natijada frazeologik kompetensiyaning leksik, semantik va pragmatik komponentlari o‘zaro integrallashgan holda takomillashib, talabalarning frazeologik birliklardan samarali foydalanish malakasi shakllantiriladi.

Mashqlar tizimi PCDI diagnostik modeli bilan uzviy bog‘langan: kontekstual aniqlik ko‘rsatkichi diagnostik-motivatsion, semantik aniqlik kognitiv-semantik va lingvomadaniy-qiyosiy, pragmatik moslik va stilistik sezgirlik esa kontekstual-pragmatik va ijodiy-kommunikativ mashqlar orqali rivojlantiriladi. Metodik tizim amaldagi ingliz tili kursiga integrativ modul sifatida kiritilib, har bir o‘quv birligida uch bosqichda qo‘llanadi: dars oldidan PCDI ko‘rsatkichlari bo‘yicha diagnostika o‘tkazilib, talabaning zaif ko‘rsatkichi va unga mos mashq turi belgilanadi; dars davomida frazeologik birliklar besh bosqichli mexanizm asosida o‘rgatiladi; darsdan keyin talaba idioms-academy.uz platformasida “Self-check – Context-check – Meaning-check” zanjiri orqali o‘zini nazorat qiladi.

“Self-check – Context-check – Meaning-check” metakognitiv monitoring modelining umumiy monitoringdan farqi shundaki, uning har bir bosqichi frazeologik kompetensiyaning muayyan komponentiga yo‘naltirilgan: Self-check bosqichida talaba birlikni yaxlit frazeologizm sifatida taniydi (leksik komponent, kontekstual aniqlik), Context-check bosqichida uning vaziyat va uslubga mosligini tahlil qiladi (pragmatik komponent, pragmatik moslik va stilistik sezgirlik), Meaning-check bosqichida esa ko‘chma ma’noni kontekst va obrazli asos orqali aniqlaydi (semantik komponent, semantik aniqlik). Model auditoriyada o‘qituvchi rahbarligida, mustaqil ishda esa idioms-academy.uz platformasida qo‘llanadi.Oliy ta’lim tashkilotlarida talabalarning frazeologik kompetensiyasini kognitiv yondashuv asosida takomillashtirishning metodik asosi sifatida “AI-assisted reflective learning” (Sun’iy intellekt ko‘magidagi refleksiv ta’lim) raqamli modeli ishlab chiqildi. Ushbu model talabalarda metakognitiv monitoring va avtonom o‘z-o‘zini korreksiya qilish (*self-correction*) ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan uch bosqichli funksional zanjirni o‘z ichiga oladi. Ushbu model uch bosqichli “Self-check-Context-check-Meaning-check” arxitekturasiga asoslanib, har bir bosqichda sun’iy intellekt maxsus yo‘riqnomalar (promptlar) orqali talabani tayyor javob berish o‘rniga mustaqil kognitiv tahlilga yo‘naltiradi (5-jadvalga qarang).

5-jadval

Promptlar arxitekturasi va muloqot ssenariysi [53]

Bosqich	Tizim algoritmi (Prompt maqsadi)	Talaba harakati / Tizimning refleksiv javobi (Namuna)
Self-check	Talabaning birlikni yaxlit frazeologizm sifatida	*AI: “Siz ‘bite the bullet’ iborasini tanladingiz. Uni o‘z matningizda qo‘llashdan oldin o‘ylab*

[53] Muallif ishlanmasi

	tanishini tekshirish va u haqidagi dastlabki bilimini faollashtirish.	*ko‘ring: bu ibora so‘zma-so‘z ma’noda emas, yaxlit frazeologizm sifatida ishlatilishini bilasizmi? Uni avval qayerda uchratgansiz?”*
Context-check	Talabani birlik qo‘llangan vaziyat va uslubni tahlil qilishga yo‘naltirish, xatoni to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytmasdan.	*Talaba yozgan matn:* “I was so happy and excited, so I decided to bite the bullet.” *AI:* “Gapingizdagi vaziyatni tahlil qiling: bu quvonchli voqeami yoki noxush, ammo muqarrar qaror talab qiladigan holatmi? Bu ibora odatda qanday vaziyatlarda ishlatiladi?”
Meaning-check	Talabani obrazli asos orqali ko‘chma ma’noni mustaqil aniqlashga va xulosaga olib kelish.	*AI:* “Endi iboraning obraziga e’tibor bering: o‘qni tishlash — og‘riqqa matonat bilan chidash. Bu ko‘chma ma’no gapingizga mos keladimi?” *Talaba (refleksiyadan so‘ng):* “Demak, bu ibora noxush, lekin chetlab o‘tib bo‘lmaydigan ishga jur’at qilish ma’nosida qo‘llanadi; quvonch vaziyatiga mos emas.” *AI:* “To‘g‘ri. Endi gapingizni shu ma’noga mos vaziyat bilan qayta yozing.”

Mazkur model an’anaviy “xatoni to‘g‘rilash” uslubidan tubdan farq qilib, talabalarda avtonom refleksiv ko‘nikmalarni shakllantiradi va frazeologizmlarning madaniy-uslubiy qatlamlarini chuqur anglashga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning “Talabalarning frazeologik kompetensiyasini kognitiv yondashuv asosida takomillashtirish samaradorligining tajriba-sinov tahlili” deb nomlangan uchinchi bobida ilmiy-nazariy qarashlarning amaliyotdagi tatbiqi va uning samaradorligi bayon etilgan.

Tajriba-sinovning maqsadi — frazeologik kompetensiyani kognitiv yondashuv asosida takomillashtirish metodikasini amaliyotga joriy etish, uning samaradorligini tekshirish va natijalar asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tajriba-sinov ishlari 2024–2025 o‘quv yilida “Og‘zaki nutq amaliyoti” fani doirasida O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali, Guliston davlat universiteti va O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida o‘tkazildi. Unda 1-kurs filologiya yo‘nalishi talabalaridan jami 370 nafari (tajriba guruhi – 187, nazorat guruhi – 183 nafar) ishtirok etdi. Ma’lumotlar pedagogik kuzatuv, test, anketa-so‘rovnoma va suhbat orqali to‘plandi.

Tajriba-sinov to‘rt bosqichda olib borildi:

tashxislash va tashkiliy tayyorgarlik bosqichida mashg‘ulotlar kuzatildi, professor-o‘qituvchilar va talabalar bilan suhbatlar o‘tkazildi, kognitiv yondashuvga asoslangan mashg‘ulot ishlanmalari, mashqlar tizimi va PCDI ko‘rsatkichlariga mos baholash materiallari tayyorlandi;

aniqlovchi bosqichda tajriba va nazorat guruhlari belgilanib, talabalarning boshlang‘ich frazeologik kompetensiya darajasi PCDI ko‘rsatkichlari asosida aniqlandi;

takomillashtiruvchi bosqichda tajriba guruhidagi mashg‘ulotlar kognitiv yondashuv asosida ishlab chiqilgan besh turdagi mualliflik mashqlari, jumladan

“Dialogik rolli o‘yin mashqlari” asosida tashkil etildi; talabalarning mustaqil mashq qilishi va bilimlarini refleksiv tahlil qilishi uchun idioms-academy.uz raqamli ta’lim platformasi hamda “Self-check – Context-check – Meaning-check” metakognitiv monitoring modelidan foydalanildi; nazorat guruhida esa an’anaviy dars shakllari saqlab qolindi;

yakuniy nazorat va umumlashtirish bosqichida ikkala guruhda yakuniy test, anketa va suhbatlar o‘tkazilib, natijalar matematik-statistik usullar bilan qayta ishlandi.

6-jadval

Tadqiqot ishi yuzasidan tajriba-sinov ishlariga jalb qilingan respondentlar to‘g‘risida ma’lumot[54]

Oliy ta’lim tashkilotlari	Jami	Tajribaga jalb qilingan talabalar	
		TG	NG
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali	112	56	56
Guliston davlat universiteti	132	67	65
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti	126	64	62
Jami	**370**	**187**	**183**

Talabalarning ingliz tilida frazeologik kompetensiyasini baholashda tadqiqotning PCDI diagnostik modeliga tayanildi. Baholash frazeologik kompetensiyaga xos to‘rt ko‘rsatkich - semantik aniqlik, pragmatik moslik, kontekstual aniqlik va stilistik sezgirlik – bo‘yicha, har biri a’lo, yaxshi, o‘rta va past darajalarda amalga oshirildi. Ushbu mezonlar frazeologik kompetensiyani kognitiv yondashuv asosida takomillashtirish jarayonida talabalarning frazeologik birliklarni o‘zlashtirish darajasini kompleks baholashga xizmat qiladi. Shu tariqa baholash talabaning til bilimi bilan birga uning kognitiv faoliyatini – ma’noni anglash, talqin qilish, bilimni kontekstda qo‘llash va o‘z ishini refleksiv tahlil qilish qobiliyatini ham o‘lchaydi. Tadqiqot ishida ishlab chiqilgan mezonlar talabalarning ingliz tilini o‘zlashtirish jarayonida frazeologik birliklarni nafaqat passiv tushunish, balki faol nutqiy faoliyatda kreativ va funksional qo‘llay olish darajasini aniqlash imkoniyatini beradi. (7-jadvalga qarang)

7-jadval

Frazeologik kompetensiyani baholash mezonlari (PCDI)[55]

Baholash mezoni (PCDI)	Baholash tavsifi
Semantik aniqlik	**A’lo (5 baho).** Frazeologizmning majoziy ma’nosini to‘liq va aniq tushunadi, obrazli-konseptual asosini mustaqil izohlay oladi va to‘g‘ri misollar keltiradi.
	Yaxshi (4 baho). Ma’noni to‘g‘ri tushunadi, ammo obrazli-konseptual asosini to‘liq izohlay olmaydi; kichik noaniqliklar bo‘ladi.

[54] Muallif ishlanmasi
[55] Muallif ishlanmasi

Baholash mezoni (PCDI)	Baholash tavsifi
	O‘rta (3 baho). Umumiy ma’noni taxminan tushunadi, ba’zan so‘zma-so‘z (literal) talqin qiladi.
	Past (2 baho va kam). Frazeologizmning ma’nosini tushunmaydi yoki so‘zma-so‘z noto‘g‘ri talqin qiladi.
Pragmatik moslik	**A’lo (5 baho).** Frazeologizmni kommunikativ vaziyatga to‘liq mos va o‘rinli qo‘llaydi; muloqot maqsadi va sharoitini to‘g‘ri hisobga oladi.
	Yaxshi (4 baho). Asosan o‘rinli qo‘llaydi, ayrim vaziyatlarda noaniqlik uchraydi.
	O‘rta (3 baho). Ba’zan noo‘rin yoki sun’iy qo‘llaydi; vaziyatga mosligi beqaror.
	Past (2 baho va kam). Frazeologizmni vaziyatga mos qo‘llay olmaydi.
Kontekstual aniqlik	**A’lo (5 baho).** Frazeologizmni kontekstdan aniq tanib oladi va to‘g‘ri shaklda qo‘llaydi; erkin so‘z birikmasidan farqlaydi.
	Yaxshi (4 baho). Asosan to‘g‘ri tanidi va qo‘llaydi, kichik shakliy xatolar bo‘ladi.
	O‘rta (3 baho). Ba’zan frazeologizmni erkin birikmadan ajrata olmaydi yoki shaklini buzadi.
	Past (2 baho va kam). Frazeologizmni kontekstda tanimaydi yoki noto‘g‘ri qo‘llaydi.
Stilistik sezgirlik	**A’lo (5 baho).** Uslubiy bo‘yoqni (rasmiy/norasmiy) aniq his qiladi va frazeologizmni mos registrda ishlatadi.
	Yaxshi (4 baho). Uslubni asosan to‘g‘ri tanlaydi, ayrim registr chalkashliklari bo‘ladi.
	O‘rta (3 baho). Uslubiy farqni kam sezadi; registr tanlashda ikkilanadi.
	Past (2 baho va kam). Uslubga e’tibor bermaydi, frazeologizmni nomos registrda ishlatadi.

Tajriba-sinov ishlarining samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba guruhi (187 nafar) va nazorat guruhi (183 nafar) talabalarining tajriba-sinov boshida va yakunida ko‘rsatgan o‘zlashtirish darajalarini qiyosiy tahlil qilamiz (8-jadvalga qarang).

8-jadval

Tajriba va nazorat guruhlari talabalarining tajriba-sinov boshida va yakunida o‘zlashtirish darajalari[56]

[56] Muallif ishlanmasi

O‘zlashtirish darajasi	Tajriba-sinov boshida		Tajriba-sinov yakunida	
	Tajriba guruhi (187 nafar)	**Nazorat guruhi** (183 nafar)	**Tajriba guruhi** (187 nafar)	**Nazorat guruhi** (183 nafar)
A’lo	47 (25,1%)	46 (25,1%)	58 (31,0%)	32 (17,5%)
Yaxshi	56 (29,9%)	55 (30,1%)	59 (31,6%)	50 (27,3%)
O‘rta	56 (29,9%)	55 (30,1%)	45 (24,1%)	58 (31,7%)
Past	28 (15,0%)	27 (14,8%)	25 (13,4%)	43 (23,5%)
Jami	**187 (100%)**	**183 (100%)**	**187 (100%)**	**183 (100%)**
O‘rtacha ball ($\bar{X}$)	3,65	3,66	3,80	3,39

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tajriba-sinov boshida tajriba va nazorat guruhlarining o‘zlashtirish natijalari o‘rtasida deyarli farq kuzatilmadi: ikkala guruhda ham “a’lo” darajadagi talabalar 25,1 foizni, “past” darajadagilar esa mos ravishda 15,0 va 14,8 foizni tashkil etdi. Guruhlarning o‘rtacha ballari ham amalda teng bo‘lib (3,65 va 3,66), samaradorlik koeffitsiyenti Kef ≈ 1,00 ni ko‘rsatdi. Boshlang‘ich natijalar bo‘yicha hisoblangan $\chi^2 = 0{,}004$ (df = 3) taqsimotlar statistik jihatdan bir xil ekanini ko‘rsatdi.

Quyida biz tomonimizdan tavsiya etilayotgan metodika va shu metodika asosida ishlab chiqilgan didaktik materiallar tajriba-sinovdan o‘tkazilgach, tajriba yakunida kuzatilgan natijalarni keltiramiz. 8-jadvaldagi ma’lumotlarga ko‘ra, tajriba yakunida tajriba guruhida “a’lo” darajadagi talabalar ulushi 31,0 foizni tashkil etgan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich 17,5 foizga teng bo‘ldi; “past” darajadagi talabalar esa tajriba guruhida 13,4 foizni, nazorat guruhida 23,5 foizni tashkil etdi. Guruhlarning o‘rtacha ballari tajriba guruhida 3,80, nazorat guruhida 3,39 ga teng bo‘lib, samaradorlik koeffitsiyenti Kef = 3,80 / 3,39 ≈ 1,12 (Kef > 1) ni tashkil etdi.

9-jadval

Umumiy respondentlar uchun statistik hisoblash natijalari[57]

T/r	Guruhlar	O‘rtacha qiymat	Samaradorlik	Xi kvadrat	Tanlanma dispersiya	O‘rtacha kvadratik og‘ish	Ishonch intervali	
1	Tajriba guruhi	3,80	1,12	14,62	1,05	1,02	3,66	3,95
2	Nazorat guruhi	3,39			1,06	1,03	3,24	3,54

9-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, tajriba yakunida tajriba guruhining o‘rtacha bahosi nazorat guruhinikidan 0,41 ballga (taxminan 12 foizga) yuqori bo‘ldi. Bu farqning statistik ishonchliligi χ^2 mezoni bilan tasdiqlandi: χ^2kuzatuv = 14,62 kritik qiymatdan katta (χ^2kritik = 7,81; df = 3; $\alpha = 0{,}05$; $p \approx 0{,}002$), ya’ni

[57] Muallif ishlanmasi

tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farq tasodifiy emas; samaradorlik koeffitsiyenti Kef = 1,12. Ikki guruhning 95 foizli ishonch oraliqlari – (3,66; 3,95) va (3,24; 3,54) – kesishmaydi.

UMUMIY XULOSALAR

Ushbu tadqiqotda filologiya yo‘nalishi 1-kurs talabalari ingliz tilidagi frazeologik kompetensiyasini kognitiv yondashuv asosida takomillashtirish masalasi ko‘rib chiqildi. Nazariy tahlil va tajriba-sinov natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Frazeologik kompetensiya nutqiy kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida asoslanib, uning mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi. Kompetensiya uch komponentdan iborat: frazeologik birlikni yaxlit til birligi sifatida tanish (leksik komponent), uning majoziy-konseptual ma’nosini anglash (semantik komponent) hamda uni kommunikativ vaziyat va madaniy kontekstga mos qo‘llash (pragmatik komponent). Ushbu kompetensiyani takomillashtirishning nazariy negizi sifatida konseptual metafora nazariyasi (G.Lakoff, M.Johnson, Z.Kövecses), metafora ongliligini oshirish yo‘nalishi (F.Boers) va metakognitiv nazorat tamoyili (J.Flavell) belgilandi. (1.1–1.3-§)

2. Amaldagi ta’lim standartlari, darslik va o‘quv-metodik majmualar tahlili shuni ko‘rsatdiki, frazeologik birliklar asosan grammatik shakl va tarjima orqali berilmoqda. Ularning kontekstda qo‘llanishi, madaniy funksiyasi va semantik o‘ziga xosliklari esa e’tibordan chetda qolmoqda. Shuning uchun mavjud o‘quv materiallarini mazmuniy va kommunikativ jihatdan yangilash zarur. (2.1-§)

3. Frazeologik kompetensiyani kognitiv yondashuv asosida takomillashtirishning besh bosqichli metodik mexanizmi ishlab chiqildi: semantik anglash → kognitiv tahlil → mental modellashtirish → interfaol amaliyot → refleksiv baholash. Mexanizm frazeologik birliklarni yodlash orqali emas, balki ularning obrazli-konseptual asosini anglash, kontekstda tahlil qilish va nutqiy vaziyatlarda qo‘llash orqali o‘zlashtirishni nazarda tutadi. (2.2-§)

4. Mexanizmni amalga oshirish uchun olti turdagi mashqlar tizimi ishlab chiqildi: diagnostik-motivatsion, kognitiv-semantik, lingvomadaniy-qiyosiy, kontekstual-pragmatik, ijodiy-kommunikativ va refleksiv-baholash mashqlari. Tizim leksik, semantik va pragmatik komponentlarni retseptiv idrokdan produktiv qo‘llashgacha izchil takomillashtiradi. Tajriba-sinovda qo‘llanilgan mualliflik mashqlari ushbu tizimning amaliy ko‘rinishi hisoblanadi. (2.3-§)

5. An’anaviy “to‘g‘ri/noto‘g‘ri” tamoyilidagi baholashdan farqli ravishda PCDI (Phraseological Competence Diagnostic Indicators) diagnostik modeli ishlab chiqildi. U frazeologik kompetensiyani to‘rt ko‘rsatkich bo‘yicha baholaydi: semantik aniqlik, pragmatik moslik, kontekstual aniqlik va stilistik sezgirlik. Model diagnostika natijalari asosida talabaning zaif ko‘rsatkichiga mos mashq turini tanlash imkonini beradi; tajriba-sinovda u baholash mezoni sifatida qo‘llandi. (2.1–2.2-§, 3.1-§)

6. Uch bosqichli “Self-check – Context-check – Meaning-check” metakognitiv monitoring modeli ishlab chiqildi. Uning umumiy monitoringdan farqi shundaki, har bir bosqich frazeologik kompetensiyaning muayyan komponentiga yo‘naltirilgan: Self-check – birlikni yaxlit frazeologizm sifatida tanishga (leksik komponent), Context-check – qo‘llanish vaziyati va uslubini tahlil qilishga (pragmatik komponent), Meaning-check – ko‘chma ma’noni kontekstdan anglashga (semantik komponent). Model auditoriya mashg‘ulotlarida o‘qituvchi rahbarligida qo‘llanadi hamda “AI-assisted reflective learning” raqamli platformasida (idioms-academy.uz) amalga oshirildi. Platforma frazeologik birliklarni semantik izohlash, kontekstual aniqlikni baholash va talabaning o‘z-o‘zini nazorat qilish jarayonlarini avtomatlashtiradi. U O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan Dasturiy mahsulotlar davlat reyestrida ro‘yxatga olingan (guvohnoma № DGU 67957, 29.07.2026). (2.2–2.3-§)

7. Tajriba-sinov ishlari 2024–2025 o‘quv yilida O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali, Guliston davlat universiteti va O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida o‘tkazildi. Unda jami 370 nafar talaba ishtirok etdi: tajriba guruhida 187, nazorat guruhida 183 nafar. Tajriba boshida guruhlarning o‘rtacha ko‘rsatkichlari deyarli teng edi (3,65 va 3,66). Tajriba oxirida tajriba guruhining o‘rtacha ko‘rsatkichi 3,80 ga, nazorat guruhiniki esa 3,39 ga teng bo‘ldi; “a’lo” darajadagi talabalar ulushi tajriba guruhida 31,0 foizni, nazorat guruhida 17,5 foizni tashkil etdi. (3.1–3.2-§)

8. Tadqiqot gipotezasi statistik jihatdan tasdiqlandi: $\chi^2 = 14{,}62 > \chi^2krit = 7{,}81$ ($df = 3$; $\alpha = 0{,}05$), samaradorlik koeffitsiyenti Kef = 1,12. Kognitiv yondashuvga asoslangan ta’lim modeli frazeologik kompetensiyani takomillashtirishda an’anaviy usullarga nisbatan statistik jihatdan ishonchli darajada samaraliroq ekani aniqlandi. Bu natija ingliz tili o‘qitish amaliyotida kognitiv yondashuvga ko‘proq o‘rin berish, o‘quv materiallarini shu asosda qayta ko‘rib chiqish va kognitiv-interfaol metodlarni kengroq qo‘llash maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi. (3.3-§)

9. Ingliz va o‘zbek frazeologizmlari “journey”, “animal”, “war”, “body”, “food” metafora kodlari asosida qiyosiy-konseptual tahlil qilindi. Natijada ikki tildagi frazeologik obrazlilikning universal, qisman mos va madaniy-xos zonalari aniqlanib, kognitiv-madaniy xaritada umumlashtirildi (1.1-§). Mazkur natija ikkinchi bobda kontrastiv mashqlar tizimining didaktik asosi sifatida amaliy tatbiq etildi (2.3-§).

AMALIY TAVSIYA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot davomida olingan ilmiy xulosalar va yaratilgan mualliflik yangiliklaridan ta’lim amaliyotida foydalanish maqsadida quyidagi amaliy tavsiya va takliflar ishlab chiqildi:

1. Frazeologik kompetensiyaning ilmiy-nazariy tahlili natijasida asoslangan mualliflik ta’rifi hamda uning leksik, semantik va pragmatik komponentlaridan iborat tuzilmasini chet tili o‘qitish metodikasi bo‘yicha keyingi ilmiy-metodik

ishlanmalar va dissertatsion tadqiqotlar uchun nazariy asos sifatida qo‘llash tavsiya etiladi.

2. Kognitiv yondashuv asosida ishlab chiqilgan besh bosqichli metodik mexanizm (semantik anglash → kognitiv tahlil → mental modellashtirish → interfaol amaliyot → refleksiv baholash) samaradorligi tajriba-sinovda tasdiqlanganligidan kelib chiqib, oliy ta’lim tashkilotlarining filologiya yo‘nalishlari o‘quv dasturlariga mazkur mexanizmni joriy etish tavsiya etiladi.

3. Tadqiqotning birinchi ilmiy yangiligi – PCDI diagnostik modelidan kelib chiqib, professor-o‘qituvchilarga frazeologik kompetensiyani “to‘g‘ri/noto‘g‘ri” tamoyili o‘rniga to‘rt ko‘rsatkich bo‘yicha baholash, diagnostika natijasida talabaning zaif ko‘rsatkichini aniqlab, unga mos mashq turini tanlash tavsiya etiladi.

4. Tadqiqotning uchinchi ilmiy yangiligi ingliz va o‘zbek frazeologizmlarining “journey”, “animal”, “war”, “body”, “food” metafora kodlari asosidagi qiyosiy-konseptual tahlili va kognitiv-madaniy xaritasidan foydalanib, darslik va o‘quv-metodik majmua mualliflariga frazeologik birliklarni so‘zma-so‘z tarjima orqali emas, metafora kodlari bo‘yicha guruhlangan, kontekstual va lingvomadaniy-qiyosiy tarzda taqdim etish tavsiya qilinadi.

5. Tadqiqotda ishlab chiqilgan olti turdagi mashqlar tizimidan (diagnostik-motivatsion, kognitiv-semantik, lingvomadaniy-qiyosiy, kontekstual-pragmatik, ijodiy-kommunikativ, refleksiv-baholash) o‘quv jarayonida va qo‘shimcha o‘quv materiallarini yaratishda foydalanish professor-o‘qituvchilar va material tuzuvchilarga tavsiya etiladi.

6. Tadqiqotning ikkinchi va to‘rtinchi ilmiy yangiliklari “Self-check – Context-check – Meaning-check” metakognitiv monitoring modeli hamda “AI-assisted reflective learning” modeli va uni amalga oshiruvchi idioms-academy.uz platformasidan kelib chiqib, professor-o‘qituvchilarga o‘quv jarayonida ushbu model va platforma orqali talabalarning mustaqil, refleksiv va sun’iy intellekt yordamidagi o‘rganishini tashkil etish tavsiya qilinadi; shuningdek, chet tili o‘qituvchilarining malaka oshirish kurslariga mazkur metodika bo‘yicha alohida modul kiritish maqsadga muvofiqdir.

7. Ishlab chiqilgan metodik tizim va raqamli platformaning imkoniyatlarini boshqa chet tillari (nemis, fransuz va boshqalar) hamda ta’limning turli bosqichlari materialida sinovdan o‘tkazish va kengaytirish keyingi ilmiy tadqiqotlar uchun istiqbolli yo‘nalish sifatida tavsiya etiladi.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 03/2026.31.01.Ped.45.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ

УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ

Рузибоев Кувончбек Эргаш угли

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ ФИЛОЛОГИЧЕСКОГО НАПРАВЛЕНИЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ НА ОСНОВЕ КОГНИТИВНОГО ПОДХОДА.

13.00.02 - Теория и методика обучения и воспитания (английский язык)

АВТОРЕФЕРАТ диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Ташкент-2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан за № B2025.1.PhD/Ped9394.
Диссертация выполнена в Узбекском государственном университете мировых языков.

Автореферат диссертации размещён на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.uzswlu.uz) и на Информационно-образовательном портале “ZiyoNet” (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: **Кушиева Нодира Хабибжоновна**
доктор педагогических наук (DSc), доцент.

Официальные оппоненты: **Абдуллаева Розанна Мирзатуллаевна**
доктор педагогических наук (DSc), профессор

Саматова Барнохон Равшанхановна
доктор философии по педагогическим наукам (PhD), и.о. профессора

Ведущая организация: **Бухарский государственный университет**

Защита диссертации состоится “_____” _____2026 года в _____ часов на заседании Научного совета DSc. 03/2026.31.01.Ped.45.02 по присуждению ученых степеней при Узбекском государственном университете мировых языков. (Адрес: 100138, г. Ташкент, Учтепинский район, улица Кичик халка йули, дом 21 А. Тел.: (99871) 230-12-91, факс: (99871) 230-12-92, e-mail: uzswlu_info@mail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета мировых языков (зарегистрирована за №_____). Адрес: 100138, г. Ташкент, Учтепинский район, улица Кичик халка йули, дом 21 А. Тел.: (99871) 230-12-91, факс: (99871) 230-12-92.

Автореферат диссертации разослан “___” _____ 2026 года.
(Протокол реестра рассылки №____ от “___” _____2026 года).

И.М. Тухтасинов
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.п.н. (DSc), профессор

Ф.Г. Закирова
Секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам

А.Б. Рахмонов
Председатель научного семинара При Научном совете по Присуждению ученых степеней, д.п.н. (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В условиях интенсивного развития глобализации и информационных технологий вопрос совершенствования лингвистической и культурной компетентности на основе фразеологических единиц при обучении иностранным языкам, в особенности английскому, превращается в важное научно-методическое направление в системе образования. В современной коммуникации наряду с грамматическими и лексическими знаниями требуется умение правильно использовать в контексте фразеологические единицы, составляющие образный пласт языка. Поскольку фразеологические единицы воплощают культурное мышление, исторический опыт и национальные ценности народа, их изучение важно не только как овладение языком, но и как процесс освоения культуры. С позиций когнитивного подхода фразеологическая единица трактуется не как готовая лексическая форма, а как единство значения и образа, сформированное на основе человеческого мышления, восприятия и концептуального опыта; при этом изучающий язык рассматривается не как получатель готовой информации, а как субъект, активно осмысляющий значение и концептуально его реконструирующий. Именно эта особенность отличает когнитивный подход от традиционных лексико-грамматических методов обучения и определяет его как методологически ведущее направление совершенствования фразеологической компетенции.

В практике ряда ведущих мировых университетов, в том числе Оксфордского университета[1], Гарвардского университета[2] и Университетского колледжа Лондона[3], преподавание иностранных языков характеризуется не только овладением языковой системой, но и развитием коммуникативных навыков, совершенствованием учебных стратегий, укреплением межкультурной компетентности и организацией контекстуального обучения на основе аутентичных материалов. В этой связи важное место в практике современного высшего образования при обучении иностранным языкам занимают компетентностный подход, когнитивные методы, интерактивные технологии и использование аутентичных материалов. Данные подходы эффективны и при обучении фразеологическим единицам, способствуя более глубокому пониманию их значения, контекста и культурного содержания.

В нашей республике популяризация изучения иностранных языков, внедрение международных стандартов в системе образования и повышение языковых знаний специалистов определены в качестве приоритетной задачи.

---

[1] University of Oxford. *Modern Languages General Course Guide 2025/26*. Режим доступа: https://www.lang.ox.ac.uk/modern-languages-general-course-guide; University of Oxford. *Applied Linguistics Research Group*. — Режим доступа: https://www.education.ox.ac.uk/research/research-groups/language-cognition-development/applied-linguistics/

[2] Harvard University. *Area Courses: East Asian Languages and Civilisations*. Режим доступа: https://eas.fas.harvard.edu/area-courses

[3] University College London. *Centre for Languages & International Education*. Режим доступа: https://www.ucl.ac.uk/languages-international-education/

[4]Подготовка студентов в организациях высшего образования к практической деятельности по профилю требует организации иноязычного образования в соответствии с профессиональными потребностями. Задача подготовки высококвалифицированных кадров, глубоко владеющих современными информационно-коммуникационными технологиями и иностранными языками, ещё более усиливает необходимость разработки теоретико-методических основ компетентностного и когнитивного подходов в обучении иностранным языкам, в том числе в усвоении фразеологических единиц.

Данное исследование служит обеспечению исполнения задач, определённых в Законе Республики Узбекистан от 23 сентября 2020 года № ЗРУ-637 “Об образовании”, в указах Президента Республики Узбекистан от 29 апреля 2019 года № УП-5712 “Об утверждении Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года”, от 8 октября 2019 года № УП-5847 “Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года”, от 6 ноября 2020 года № УП-6108 “О мерах по развитию сферы образования и воспитания, науки на новом этапе развития Узбекистана”, от 28 января 2022 года № УП-60 “О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы”, Указ Президента Республики Узбекистан от 10 апреля 2026 года № УП-58 “О дополнительных мерах по совершенствованию системы высшего образования, науки и инноваций”, Указ Президента Республики Узбекистан от 26 мая 2026 года № УП-98 “О совершенствовании системы подготовки и аттестации научных кадров нового поколения”,в постановлениях Президента Республики Узбекистан от 20 апреля 2017 года № ПП-2909 “О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования”, от 10 декабря 2012 года № ПП-1875 “О мерах по дальнейшему совершенствованию системы изучения иностранных языков”, от 19 мая 2021 года № ПП-5117 “О мерах по выводу на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан”, в постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан от 11 августа 2017 года № 610 “О мерах по дальнейшему повышению качества преподавания иностранных языков в образовательных учреждениях”, от 19 мая 2021 года № 312 “О мерах по эффективной организации популяризации изучения иностранных языков” и других нормативно-правовых актах.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики “Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-

[4] Постановление Президента Республики Узбекистан от 19 мая 2021 года № ПП-5117 “О мерах по выводу на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан”. https://lex.uz/ru/docs/-5426736

просветительском развитии информационного общества и демократического государства”.

Степень изученности проблемы. В нашей стране исследования, направленные на формирование, развитие и совершенствование различных компетенций по вопросам обучения иностранным языкам, а также на разработку и совершенствование современных педагогических технологий обучения иностранным языкам, проводились следующими учёными: Т.К. Сатторов, С. Сайдалиев, Д.У. Хошимова, Г.Т. Махкамова, Ж.Ж. Джалолов, Ш.С. Ашуров, Г.Х. Бакиева, Л.Т. Ахмедова, И.М. Тухтасинов, Н.Х. Кушиева, Ф.М. Рашидова, М.Х. Гулямова, К.Ш. Мурадкасимова, А.Б. Рахмонов, У.Р. Йулдошев и другими учёными.[5] В данном исследовании были изучены научные работы таких ученых, как Ш.К. Ниязметова [6], Д.М. Исроилова [7], Н.Ф. Касимова, М.У. Шарипова[8], С.А. Мухиддинова[9], Д.Ф. Гайбуллаева[10], Н.А. Хайдарова[11], Ф.М. Маматова[12,] М.И. Ахмедова [13], Д.М. Рахимов [14], Д.Ф.

